


3-son




TA'LIM FIDOYILARI

ILMIY USLUBIY JURNAL

2021-YEAR
5-APRIL



«TA'LIM FIDOYILARI» ilmiy-uslubiy jurnali



«INTELLECT EDUCATION OFFICIAL»
NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI

«TA'LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

3-SON, 1-JILD, APREL-2021

Google @ mail Яндекс Y

WWW.TALIMFIDOYILARI.UZ

ISSUE 3. 5 APRIL 2021

122	MUSIQIY TA'LIM DARSLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI J.Majidov Maxmudova Feruza Shukurullayevna	679
123	O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING IJTIMOYIY BARQARORLIKNI TAMINLASHDAGI RO'LI Abdusalilov Bekzod	686
124	INGLIZ TILIDAGI SEZGI FE'LLARIGA INTERAKTIV METODLAR ORQALI INNOVATSION YONDASHUV Xamrayeva Maxzuna Gayratona	693
125	KIMYO FANINI O'QITISHIDA TABAQALASH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH Mehmonova Zarina Imomovna	698
126	XALQARO TADQIQOTLAR TAJRIBASIDA BOSHILANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH.Baynazarova Nargiza Abdukadirovna	702
127	BUXORO VA AFG'ONISTON HARBIIY SOHADAGI ALOQALARI.(XVIII asr oxiri XX asr birinchi choragi) Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li	707
128	NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA SOMATIZMLARNING O'XSHASH JIHATLARI.Yulduz Ochilova, P.O.Nuraliyev	712
129	ПОЭТИ И ДРАМАТУРГИ. ПУБЛИЦИСТИКА И ДАГОГ - МАКСУДИШЕ ИХЗАДЕ Тешаева А.О	718
130	YANGI O'ZBEKISTON - YANGI IMKONIYATLAR YURTI.Omonova Nafisa Qahramon qizi	723
131	GYOTENING "FAUST" FOJEANOMASIDA QO'LLANILGAN ASOSIY OBRAZLI VOSITALAR.Hamroqulova Sitara	730
132	ЕВРЕЙСКИЙ КВАРТАЛ.Мухаммадов С.К,Хамидова Мохиргул Хаёт кизи	735
133	РУССКАЯ ПУНКТУАЦИЯ.Махмудова Маржона Акбаровна,Марданова Феруза Бахратовна	739
134	LINGUISTIC FEATURES OF THE WORDS RELATED TO FASHION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.Sufiyev Hakimjon Xusanboy o'g'li,Paluvanova Xalifa Daribayevna	748
135	РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ ХВОСТОВ ФЛОТАЦИИ МЕДНО-ОБОГАТИТЕЛЬНОЙ ФАБРИКИ АЛМАЛЬСКОЙ ОТМК С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ БИОИДРОМЕТАЛЛУРГИИ Шахноза Нарзуллаева,Мунасир Сагданова	752
136	МИЛЛИЙ САЙЛОВ ТИЗИМИМИЗДА САЙЛОВ КОМИССИЯЛАРИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУКУКИЙ АСОСЛАРИ.Назарова Азима Ботабековна	763

BUXORO VA AFG'ONISTON HARBIY SOHADAGI ALOQALARI

(XVIII asr oxiri XX asr birinchi choragi)

Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li

BuxDU "Buxoro tarixi" tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro va Afg'oniston davlatlarining ikki mustamlakachi davlatlar Rossiya va Buyuk Britaniya hukmron doiralariga qarshi olib borgan harbiy sohadagi aloqalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Afg'oniston, Frunze, harbiy soha, aloqa, diplomatik, Amir Muzaffar, Amir Abdurahmon, Turkiston to'plami, Amudaryo, elchi.

Buxoro amirligining tashqi siyosatida Afg'onistonning o'rni sezilarli darajada bo'lib Buxoro amirligining tugatilishi jarayoni bilan bog'liq masalada Turkfront qo'mondoni M.V. Frunze ham amirlikni egallashda unga Afg'oniston bilan harbiy ittifoq tuzganligini bahona qilgan. Xususan Turkfront qo'mondoni M.V. Frunze harbiy harakatlarni tezlashtirishni so'rab, 1920-yil 31-iyulda V.I.Leninga : "... Buxoro amiri bizga qarshi hujumga zo'r berib tayyorlanmoqda. U Afg'oniston bilan harbiy ittifoq tuzdi. Amirlik shu tariqa yashab tursa sharqdagi bizning barcha siyosatimiz qo'l-oyoqsiz qoladi"[1] kabi xatidan ham bilish mumkinki, Buxoro amirligi va Afg'oniston o'rtasidagi diplomatik aloqalardan rus hukumati vakillari ham xabardor bo'lgan. Va bu ikki davlatning diplomatiyasidan xavsirab turgan.

Buxoro amirining afg'onlardan yordam so'rashi bilan bog'liq ma'lumotlarning birida Muzaffarxonga afg'onlar amirga mablag', qo'shin bilan emas, balki amirlik yerlaridan o'tib, o'zlari mustaqil ravishda ruslar bilan jang qilish talabini qo'yganlar. Buxoro amiri afg'onlarning beg'arazligiga shubha bilan qarab, ularning bu taklifini rad etadi.[2] Manbada ushbu harbiy yordam Afg'onistondagi qaysi siyosiy rahnamodan so'ralganligi keltirilmagan. Chunki, 1865-yil Erjardagi jangda amir Muzaffar mag'lubiyatga uchragach, Buxoro qo'shinlarining rus armiyasiga jiddiy qarshilik ko'rsata olmasligi aniq bo'lib qolgandi. Afg'onistonda esa, 1863-yil amir

Do'stmuhammadxonning vafotidan keyin uning o'g'illari hokimiyat uchun o'zaro kurash olib borayotgan edilar. Sheralixon, o'z akalari Afzalxon, Azimxonlar bilan taxt uchun kurash olib borayotgandi.

Savdogarlardan olingan ma'lumotlar asosida Rossiya imperiyasi ma'murlari Muzaffarxon o'sha paytda Balxda hukmron bo'lib turgan shahzoda Abdurahmonxondan yordam so'ragani, ammo, u Afg'on Turkistonidagi Maymana bekligi bilan urush olib borayotganligi sababli Muzaffarxonga harbiy yordam ko'rsata olmaganligi bilan bog'liq fikr-mulohazalarni yozib qoldirganlar.[3]

Amir Muzaffarxonning Afg'on Shahzodasi Abdurahmonxondan yordam so'rashi mantiqli bo'lib, Afg'on Turkistonida yashovchi etnik o'zbek-tojiklarning aksari o'zini Buxoro fuqarolari deb hisoblar va afg'on hokimlariga u qadar bo'ynsunmasdi. Ammo, amir Do'stmuhammadxon o'zining katta o'g'li Afzalxonni janubiy Turkistonga hokim qilib yuborgach, u mahalliy aholi bilan umumiy til topishga harakat qiladi. Buning uchun u o'z o'g'li Abdurahmonxonga Buxoro amiri Muzaffarxonning qizini olib bergan bo'lsa, Muzaffarxonga o'z qizini xotinlikka berganligini tarixiy manbalardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi.[4]

Buxoro amiri Muzaffarxon harbiy yordamni o'z kuyovi Abdurahmonxondan so'ragan bo'lib, o'z navbatida u Afg'onistondagi taxt talashishlarda band bo'lganligi bois Buxoroga yordam ko'rsata olish imkoniga ega emasdi. Aksincha, Muzaffarxon o'zi Rossiya imperiyasiga qarshi urush holatida bo'lsada, Abdurahmonxonga Afg'oniston taxtini egallashda harbiy va moliyaviy yordam beradi. 1865-yilda Abdurahmonxonning otasi Afzalxonni Kobul taxtini egallab, ukasi Sheralixon turmaga tashlangan bo'lib, Abdurahmonxon otasini qutqarish va Afg'oniston taxtini egallash maqsadida Buxorodan harbiy va moliyaviy yordam olib 1866 yilda Kobul taxtini qo'lga kiritadi. [5]

Abdurahmonxonning Buxoro amiri Muzaffarxonga kuyov bo'lishi xususidagi ma'lumotlar manbalarda turlicha talqin qilinadi. Keltirilgan ma'lumotlarning birida Amir Muzaffarxon Abdurahmonxonga qizini 1864-yilda turmushga berganligi keltirilib, Afg'oniston taxtiga kuyovini chiqishini ta'minlash va o'zining siyosiy mavqeini kuchaytirish uchun unga harbiy va moliyaviy yordam bergan. Shu yordam evaziga 1866-yilda Abdurahmonxon Kobul taxtini otasi Afzalxonga olib berganligi "Turkiston to'plami"ning 80-tomidagi ma'lumotlarda keltirib o'tilgan.[6] Tarixiy

voqeyliklar shuni ko'rsatadiki, Abdurahmonxon oxir-oqibat amakisi Sheralixondan mag'lub bo'lib, Eron, Xiva, Buxoro va nihoyat Samarqandda qo'nim topadi. 1868-1878 yillar davomida Rossiya imperiyasining faxriy nafaqaxo'ri sifatida yashaydi.

1868-yilda amir Muzaffar Rossiya imperiyasiga qaramlikni tan olgandan so'ng uning o'g'li Abdumalik katta to'ra isyoni boshlanadi. Mag'lub bo'lgan Katta To'ra Afg'onistonga borgach, bu yerda amir Sheralixon tomonidan yaxshi kutib olinadi. Katta To'raga o'z qizini nikohlab berish orqali kelajakda Buxoro taxtiga o'z vakilini o'tqazish rejasi vujudga keladi. Bu xabarni eshitgan amir Muzaffarxon o'zi va kuyovlari (Amir Muzaffar ikki qizini Afg'on Turkistonidagi Saripul va Oqsha beklariga turmushga uzatgan va amir Sherali bu beklklarni tugatgach, ular Buxoroga qochib kelgandilar-A.A.)ning ashaddiy raqibiga qarshi Rossiya imperiyasidan yordam so'raydi. Bir paytning o'zida esa, Xo'ja Eshon O'ronni Afg'oniston amiri saroyiga elchi sifatida jo'natib, Afg'on Turkistonidagi avvalgi Buxoro yerlarini qaytarishni talab etadi. Rossiya va Angliya talabi bilan ikki davlat o'rtasidagi boshlanishi muqarrar bo'lgan urush to'xtatiladi. 1869 yilda Rossiya talabi bilan Buxoroda boshlangan muzokaralarda ikki o'rtadagi chegara Amudaryo deb belgilanadi.[7]

Afg'oniston taxtiga Sheralixon mustahkamlanib olgach, Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar tezda ijobiy tomonga o'zgaragan. "Novoe vremya" matbuot organining 1870 yil 241-sonida; Turkiston general gubernatorligining elchilari Buxoroga kelganda, amir qabulida Afg'on elchilari ham bo'lganligi, afg'onlar kofirlar (ruslar) bilan bir vaqtda o'zlarini qabul qilinishlaridan norozi bo'lib, qabulni tark etmoqchi bo'lganlari, ularni amir qolishlarini iltimos qilgani, afg'onlar Buxoroga Amudaryoning o'ng sohilida qal'a qurish va ruslarga qarshi birgalikda kurashishni talab qilib kelganligi 12 ming afg'on qo'shini chegaradagi Toshqo'rg'onda turganligi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirib o'tilgan.[8]

Buxoroning so'ngi amiri amir Olimxon ham Afg'onistonga qochib ketgach ruslarga qarshi istiqloqlolchilik harakatlari kuchayib, hatto Turkiyadan kelgan general Anvar Posho bu harakatga rahbarlik qilgan. Anvar Posho siyosiy faoliyatida ham Afg'oniston bilan bevosita harbiy sohadagi fikrlar almashinuvi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Anvar Posho qizil askarlar bilan olib borgan janglar natijasida juda ko'plab talofotlar ko'radi. So'ngi janglardan 1922-yil 15-iyunda Kofirunda bo'lgan jangda Anvar Posho yengilib, chekindi. Shundan so'ng Afg'oniston harbiy vaziriga maktub yo'llab,

qo'shinlarida gul-dori (patron) yetishmasli, qurol-yaroq ruslarnikiga qaraganda sifatsiz ekanligi va jang taqdirining hal qilinganligi bilan bog'liq ma'lumotlarni ta'kidlagan[9].

Aslida bu maktubdan ko'zlagan maqsad harbiy yordam bilan bog'liq bo'lib, lekin bu paytda Afg'oniston sovet davlati bilan do'stona bitim tuzgan bo'lib, Afg'oniston Buxoroga harbiy yordam bera olmagan. Lekin Afg'oniston amiri Omonullaxon tomonidan Anvar Poshoning sovetlarga qarshi harbiy yurishlarini qo'llash maqsadida oz miqdorda harbiy yordami ham bo'lgan. Afg'oniston amiri Omonullaxon Anvar Poshoni doimo muhofaza qilish uchun 300 askar va unga bosh qilib Afdoliddin qo'mondonligida harbiy yordam yuborgan. Anvar Poshoning Boysun safarida ham afg'on askari birga bo'lishgan. Ahmad Zakiy Validiyning yozishicha Anvar Posho Baljuvon bilan Ko'lob orasida joylashgan Gevrekle manziliga yetgach afg'on amiri Omonullaxondan bir maktub kelgan, unda: Anvar Poshoni Afg'onistonga chorlab "Senga millatimizning bag'ri, yurtimizning darvozasi ochiq" – deb yozilgan. Lekin Anvar Posho Omonullaxonga javob maktubi yozib: "Men qat'iy shu yerda qolaman. O'lsam, do'stlarimning yurtida ustimga tortiladigan tuproq topilar. Bu yerdan ketish katta xato bo'lur. Askarlaringizga qaytishga ruxsat berdim"- deya javob maktubini yozgan va afg'on askarlariga ham ortga qaytishlarini buyurgan[10].

1922-yil 4-avgustda Anvar Posho Baljuvonda bo'lgan jangda halok bo'lgach Afg'onistonda ham uning nomiga motam e'lon qilingan. Afg'oniston garchi Buxoroga harbiy yordam bera olmagan bo'lsada lekin, istiqloqlchilik harakati rahbarlarining faoliyatiga xayrixoh bo'lgan.

Buxoro amirligining tashqi siyosatida qo'shni davlat Afg'oniston roli sezilarli darajada bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan ikki davlat o'rtasida olib borilgan harbiy sohadagi aloqalar fikrimizning isbotidir. Rossiya bosqini davrida Buxoro amirligi Afg'oniston bilan siyosiy va harbiy aloqalarni bir qadar faollashtirib u goh raqiblik, goh ittifoqchilik asosida bo'ldi. Buning asosiy sababi ikki davlatning ham buyuk davlatlar ta'siri doirasidan chiqib keta olmaganligida edi. Buning natijasi o'laroq Buxoro va Afg'oniston ikki imperiyachi davlatlarning qaram, yarim mustamlakasiga aylandi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

Qosimov F.H, Rashidov U.J Buxoro amirligining tugatilishi Buxoro tarixi masalalari (maqolalar to'plami). Buxoro.-1996., B.75-76.

1. Наши дела в Бухаре от вступления в управление краем Генерал Кауфмана. // Туркестанский сборник. Санкт-Петербург . 1869. Том 6. – С. 137.
2. Новости из Центральной Азии. // Туркестанский сборник. 1869. Том. 8. – С. 2.
3. Шерали и его отношения к Англии. // Туркестанский сборник. Том. 296. – С. 237.
4. Русско-индийский вопрос. // Туркестанский сборник. Том. 33. – С. 235.
5. Аненкова М.Н. Отношения Англо-индийских владений к северо-западным соседям. – Санк-Петербург 1874. – С. 95.
6. Туркестанский сборник. // Санкт-Петербург 1871. Том. 41. – С. 201.
7. Новое время. Туркестанский сборник. // 1870 йил, 15 август, 241-сон. С.299.
8. Rajabov Q. Buxoro Respublikasida istiqlochilik harakati: Anvar Posho boshchiligida olib borilgan janglar// Buxoro mavjlari, Buxoro., №3.2004-yil. B.27.
9. Rajabov Q. Buxoro Respublikasida istiqlochilik harakati: Anvar Posho boshchiligida olib borilgan janglar// Buxoro mavjlari, Buxoro., №3.2004-yil. B.28.